

Nuh alayhissalomning duosi



19:03 / 29.12.2019 5381

17

Nuh ko'p harakat qilib, qavmini uzoq vaqt da'vat qildi. Nuh o'z qavmida ellik yil kam ming yil, ya'ni to'qqiz yuz ellik yil turib, ularni Allohga da'vat qildi. Lekin Nuhning qavmi iymon keltirmadi. Butlarga ibodat qilishni tark etib, Allohga qaytmadilar. Nuh qachongacha kutadi? Qachongacha yerning fasod bo'lib, buzilishini ko'radi? Qachongacha toshlarga ibodat qilinayotganini ko'radi? Insonlarni qachongacha, Alloh rizqini yeb, boshqasiga ibodat qilayotganlarini ko'radi? Nimaga Nuh g'azablanmaydi? Albatta u hech kim sabr qila olmagan bardosh ila sabr qildi! Ellik yil kam ming yil! Allohu akbar! Allohu akbar!

Alloh Nuhga: «**Qavmingdan avval iymon keltirganlardan boshqa hech kim iymon keltirmas**», (*Hud surasi, 36-oyat*) oyatini vahiy qildi. Nuh qavmini yana bir bor da'vat qilganida ular: «**Ey Nuh, batahqiq, sen biz bilan tortishding, ko'p tortishding. Endi, agar rostgo'ylardan bo'lsang, bizga va'da qilayotgan narsangni keltir**», (*Hud surasi, 32-oyat*) deyishdi. Nuh Alloh uchun g'azablandi va ulardan noumid bo'lib: «Allohim! Yer yuzida kofirlardan biror kishini qoldirmagin!!!» dedi.